

O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN NEOLOGIZMLARNING YASALISH XUSUSIYATLARI

Annaqulova Shoxista

O'zbek tilidagi o'zlashma neologizmlar miqdori kundan kunga ortib bormoqda. Aytish joizki, bunday leksik birliklar qabul qiluvchi til uchun bo'linmas tuzilishga ega, ammo metatilda tub, affiksatsion yasama, kompozitsion yasama va qisqartma deya e'tirof etilishi mumkin. Tilimizdagi so'nggi yillardagi neologizmlarning aksariyat qismi ingliz va rus tillaridan o'zlashgan va o'zlashayotgan bo'lsa-da, ildizi yunon, lotin, fransuz, sanskrit tillariga borib taqaladi. Lopatin XX asr 70-yillari rus tili neologizmlarini tahlil qilar ekan *televizor*, *samolyot*, *poroxod* kabi bir qator so'zlarning asl manbasi biz yuqorida qayd etgan tillar ekanini yozadi⁹.

Bugungi kunda barcha tillar uchun so'z berishda "donor"ga aylangan ingliz tili ona tilimizda ham o'zlashma neologizmlarning asosiy manbaidir. Shu sababdan bu so'zlar tahlilida ingliz tili leksikasini aks ettiruvchi katta lug'atlarga murojaat qildik. Natijada tilimizda tub so'z sifatida e'tirof etadigan neologizmlar asl tilida tub, yasama, qisqartmalik xususiyatiga ega so'zlar ekanligi namoyon bo'ldi.

Tub leksemalar

Tub leksemalar asos va morfemalarga ajralmaydigan so'z shakllaridir. O'zlashma qatlam neologizmlari orasida so'z olgan til bilan bir qatorda so'z bergan tilda ham tub bo'lganlari mavjud.

Akkaunt – bu so'z ingliz tilida bank va axborot texnologiyalari termini hisoblanadi. O'zbek tiliga esa AT termini sifatida o'zlashgan. Telegram akkaunt, gugl akkaunt kabi birikmali holatlarda qo'llaniladi.

Gadjet – kichik va ko'chma innovatsion qurilmalarning umumiy nomini bildiruvchi bu so'z o'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan. Rus tiliga esa ingliz tilidan o'zlashgan. Har ikki so'z beruvchi tilda ham bu leksema tub so'z deb qaraladi.

Layk – bu so'z ijtimoiy tarmoqlardagi faol atama hisoblanadi. Inglizcha "like", ya'ni "yoqtirmoq" so'zidan kelib chiqqan. Tilimizda *layk bosmoq*, *layk yig'moq* kabi birikmali ko'rinishda faol qo'llaniladi.

Link – bu so'z o'zbek tilida ayni vaqtda havola o'zbekcha variant bilan nutqda teng qo'llanmoqda. *Kanal linki / kanal havolasi*, *axborot linki / axborot havolasi* kabi.

⁹ Лопатин В.В. Рождение слова. – Наука, 1973. – Б. 29–35.

Moxito – shakar, yalpiz, mevalar va suv aralashmasidan iborat ichimlik nomini ifodalovchi bu leksik birlik o‘zbek tiliga ingliz tilidan – *mojito* so‘zining fonetik o‘zlashgan shaklidir. Bu so‘zning asl manbasi ispan tilida yasama so‘z (mojo+ito) bo‘lsa-da, ingliz tilida o‘zlashgan tub so‘z hisoblanadi.

Post – bu so‘z ingliz tilida tub so‘z sifatida qaraladi va gapda ot, fe‘l ravish vazifalarida keladi. O‘zbek tiliga “something (such as a message) that is published online” – “internetga chop etiladigan qandaydir xabar” ma’nosida bilan o‘zlashgan.

Yasama so‘zlar

O‘zlashma yasama leksemalarning hosil bo‘lishi affiksatsiya va kompozitsiya usulida yuz bergan.

Affiksatsiya usulida so‘z hosil qilish o‘zga tillarda ham samarali usullardan hisoblanadi. O‘zbek tiliga o‘zlashgan neologizmlarning beruvchi tildagi yasalishi so‘zdan oldin va keyin yasovchi affikslar qo‘shish orqali yuz berganini ko‘rishimiz mumkin.

-er qo‘shimchasi ingliz tilida ot yasovchi qo‘shimchalari ichida eng unumdori hisoblanadi. V.I.Krashuk “Ingliz tilida so‘z yasalishi” asarida bu qo‘shimchadan qadimdan birorta faoliyat turi bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni belgilash uchun fe‘llardan ot yasashda ishlatilganini qayd etadi¹⁰. Ammo neologizmlar misollariga qaraydigan bo‘lsak, bu qo‘shimcha faqatgina fe‘llardan emas ot so‘z turkumidan ham shaxs oti yasay olishi ko‘rinadi. Keyinchalik texnologiya rivojlanishi bilan inson bajaradigan ishlarni bajara oladigan qurilmalarni nomlash uchun so‘z yasashda bu qo‘shimchadan foydalana boshlandi.

Quyidagi neologizmlarda -er qo‘shimchasi shaxs oti yasagan.

Blogger. Ingliz tilidan kirgan bu so‘zning asl tilda yasalishi: blog+-(g)er=blogger. Ot+-(g)er=ot. Bu yerda *blog* veb sahifa bo‘lib, -(g)er qo‘shimchasi yordamida veb sahifani boshqaruvchi shaxs oti yasalgan.

Vlogger. Ingliz tilida yasalishi: vlog+-(g)er=vlogger. Ot+-er=ot. Vlog videolardan iborat veb sahifa. Vlogger esa vlog boshqaruvchisi.

Vayner. Ingliz tilida yasalishi: vayn+er=vayner. Ot+-er=ot.

Spiker. Ing.: speak+er=speaker. Fe‘l+-er=ot. Bu so‘zning yasalishiga *speak* – *gapirmoq* so‘zi motiv vazifasini bajargan.

Quyidagi neologizmlarning -er qo‘shimchasi ingliz tilida narsa oti yasagan.

Server. Ingliz tilida yasalishi: serve+-er=server. Fe‘l+-er=ot. “Serve” “xizmat qilmoq” fe‘liga -er qo‘shimchasi qo‘shilishidan “server” “xizmat ko‘rsatuvchi qurilma” ma’nosidagi ot turkumiga oid so‘z yasalgan.

¹⁰ Карашук П. М. Словообразование английского языка. – М.: Высшая школа. 1977 – 314 с.

Skuter. Ingliz tilida yasalihi: scoot+er=scooter. Fe'l+-er=ot. "Scoot" o'zbek tilida "tez harakat qilmoq" degan tarjimoni beradi. Qo'shimcha qo'shilishidan yasalgan "scooter" esa tez harakat qiluvchi transport vositasining nomi hisoblanadi.

Messenjer. Ingliz tilida yasalihi tarkibi: massage+-er=messenger. Ot+-er=ot. "Massege" – "xabar bermoq" fe'lga -er qo'shimchasini qo'shish bilan "messenger", ya'ni "xabar beruvchi qurilma" ma'nosini anglatuvchi predmet oti yasalgan.

Taymer. Yasalihi: time+-er=timer. Ot+-er=ot. "Time" ot turkumiga oid so'zga -er affiksi qo'shilishidan "timer" so'zi hosil bo'lgan. Bu so'zga Merriam-Webster lug'atida "vaqt poygalari uchun sekundomer", "vaqt oralig'ining tugashini ovoz bilan ko'rsatadigan yoki obyektini oldindan belgilangan vaqtda ishga tushiradigan yoki to'xtatadigan qurilma" deb izoh berilgan.

-er kabi so'z yasash xususiyatiga ega qo'shimchalardan biri *kreditor, debitor, moderator* so'zlari tarkibidagi -or (kredit+-or, debit+-or) shaklida tasavvur uyg'otadigan -tor qismidir. -er qo'shimchali o'zlashma so'zlardan farqi bunday so'zlarning kelib chiqishi va tilga kirishi ingliz tili bilan bog'liq emas. O'zbek tiliga bu so'zlar rus tilidan kirib kelgan bo'lsa-da, bu tilda ham yasama so'z emas tub so'zdir. Chunki bu so'zlar lotincha ildizga borib taqaladi va boshqa tillarga tayyor holda o'zlashgan.

Ingliz tilidagi **-ing** affiksi o'zbek tilidagi harakat nomi hosil qiluvchi *-ish* qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Va asosan asosdan anglashilgan narsaning faoliyati bilan shug'ullanishni anglatadi. O'zlashma so'zlar orasida bu qo'shimcha tarkiblilari ham talaygina.

Brending. Ingliz tilida yasalihi: brand+-ing=branding. Ot+-ing=ot. "Brand" "birorta tovarni boshqa tovarlardan ajratib turadigan belgi" ma'nosini beradi. "Branding" esa "mahsulot yoki xizmatni ma'lum bir brend bilan identifikatsiyalash orqali targ'ib qilish" jarayonini anglatadi.

Bloging. Blog+-ing=bloging. Ot+-ing=ot. Blog bu muntazam yuritiladigan veb-sayt. Yoki onlayn kundalik deb ham ataladi. "Bloging" – blog yuritish faoliyati.

Re- qo'shimchasi bir qator tillarda so'zlardan oldin qo'shib yangi so'zlarni yasovchi perifiks hisoblanadi. Kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladi. Asosan, fe'l turkumi doirasidagi so'zlarga qo'shib, mavjud ma'noga "qayta, yana" semasini yuklaydi. O'zbek tili lug'aviy qatlamidan o'rin egallab ulgurgan (rus va ingliz tili orqali kirib kelgan) bunday o'zlashma so'zlar mavjud bo'lib (*revolyutsiya, reanimatsiya, reaksiya, repetitsiya, rekonstruksiya*), ayni vaqtda neologizmlar qatorida ham ko'pchilikni tashkil qiladi.

Rebranding. Ingliz tilida yasalihi: re+branding. Bu neologizm "*brendni yangilash*", "*qayta brendlash*" ma'nosini beradi.

Renovatsiya. O'zbek tiliga rus tili vositasida o'zlashgan bu so'z, asosan, qurilishda *"eskisini buzib, qayta qurish"* ma'nosida ishlatiladi.

Kompozitsiya usulda so'z yasalihi chet tillarda ham faolligi bir qator o'zlashma qatlam neologizmlar misolida namayon bo'lmoqda. Quyida bu usulda yasalgan qo'shma neologizmlarni tahlil qilamiz.

Noutbuk. Tilimizga rus tili orqali kirib kelgan bo'lsa-da, asl kelib chiqishi ingliz tiliga borib taqaladi. Ingliz tilida yasalihi: Note+book=notebook. Ot+ot=ot. Dastlab bu so'z daftar ma'nosida qo'llangan, keyinchalik esa metaforik nomlash asosida kichik kompyuterning nomiga aylandi.

Veb dizayn. Ingliz tilida bu so'z "veb" va "dizayn" so'zlarining kompozitsiyasidan yasalgan. "Internetdagi sahifalar dizayni" ma'nosini beradi.

Veb sayt. "Veb" - "tarmoq" va "sayt" birliklari qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma so'z.

Interfeys. Inter+face=interface. Prefiks+ot=ot. "Inter" - "orasida" va "face" - "yuza, sirt" so'zlarining qo'shilishidan "interface" - "interfeys", ya'ni "ikki tizim o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi vosita" tushunchasini ifodalovchi qo'shma so'z hosil bo'lgan.

Ingliz, fransuz, nemis tillarida yangi so'zlarni hosil qilishda teleskopiya deb ataluvchi yana bir faol usul borki, o'zbek tilidagi o'zlashma neologizmlarning ayrimlari asl tilda ayni shu jarayon mahsuli hisoblanadi. Kompozitsiyaning bir ko'rinishi, turi sifatida qayd qilinadigan bu usulda yangi so'z yasashda birdan ortiq leksemalarning ayrim qismlari (boshi, oxiri) noodatiy qisqartirilib birlashtiriladi. Fanda aralash (blend) usul ham deb nomlanadi. Quyida tilimizdagi neologizmlarning asl tilida teleskopiya usulida yasalganlarini tahlil qilamiz.

Blog so'zi ingliz tilida "web" - "internet" va "log" - "kundalik" ikki mustaqil so'zning qisqartirilib birashishidan yasalgan. Web+log=blog. Birinchi so'zning boshidagi ikki harf tushib qolgan.

Internet. International+net=internet. Birinchi so'zning prefiks qismi "inter" va ikkinchi so'zning to'liq ("net") qo'shilishidan hosil bo'lgan kompozitsion birlik.

Piksel so'zi ham noodatiy yasaliishga ega. "Picture's element" so'z birikmasining qisqartmasi hisoblanadi: pic+s+el=pixel.

Podkast. iPod raqamli musiqa playerining nomi hisoblanadi. Inglizcha broadcast esa o'zbekchaga "televideniye yoki radioda efirga uzatilgan dastur" deb tarjima qilinadi. Podkast so'zi aynan shu ikki so'zning teleskopik yasaliishidan hosil bo'lgan: iPod+broadcast=podcast.

Vlog - ma'lumotlar video shaklida joylanadigan veb sayt. O'zbek tiliga kirib kelgan eng so'nggi o'zlashma neologizmlardan hisoblanadi. Video blog so'z birikmasidagi so'zlarning qisqartmasi ushbu yangi so'zni yasashga asos bo'lgan. Video+blog=vlog.

Vebinar. Veb va seminar soʻzlarining noodatiy kompozitsiyasi bu soʻzni hosil qilgan. **Veb+seminar=vebinar.**

Arizona universiteti professori A.Lehrer “Zamonaviy neologizmlarni tushunish” nomli maqolasida bu usulga nisbatan tanqidiy qarashlarini bayon qiladi. Olimning fikricha, garchi yangi soʻzlarning maydoni kengayshi koʻpincha nomga muhtoj boʻlgan yangi narsalar, jarayonlar va tushunchalar bilan bogʻliq boʻlsa-da, tilshunoslik darsliklarida, leksikologiya va morfologiyaga oid kitoblarda oddiy soʻz yasash usuli sifatida qayd etiladigan teleskopiyalarga endi jiddiyroq tahlil va eʼtibor kerak. Chunki soʻnggi ikki, uch oʻn yillikda bu usulda yasalgan neologizmlar sonida keskin oʻsish kuzatilyapti, teleskopik soʻzlar reklama matnlari va OAV materiallari uchun eʼtiborni jalb qiluvchi qurolga aylanib bormoqda¹¹. Qoʻshimcha tarzida aytishimiz mumkinki, bu usulda yangi nomlar yasash hozirgi kunda oʻzbek tilida ham marketing sohasida, ayniqsa, brend yaratishda qoʻllanmoqda. Bu usulning koʻp hollarda soʻz oʻyiniga asoslangani, jumboqliligi kabi holatlar tinglovchini oʻziga jalb qilishi mumkin.

QISQARTMALAR

Qisqartmalar sintaktik birliklarning (baʼzan leksik birliklarning) ixcham shakllari boʻlib, yangi mazmun kasb etmaydi, nutqni ixcham va tez ifoda etishga yordam beradi. Ular tilning asosiy lugʻat qatlamidan oʻrin egallay olmaydi. Yana aniqroq qilib taʼriflasak, qisqartmalar soʻz shakllari yoki formal birliklardir. Oʻzbek tilida oʻzlashma soʻzlarning aksariyati oʻz tilida qisqartma soʻzlar hisoblanadi.

ID-karta. Inglizcha ID-card soʻzining oʻzlashmasi. Merriam-Webster lugʻatida quyidagicha izohi mavjud: *ismi koʻrsatilgan shaxs haqida identifikatsiya maʼlumotlari boʻlgan karta*. Ingliz tilida *identification card* (oʻzbekchada *identifikatsiya kartasi*), *identity card* (oʻzbekchada *shaxs guvohnomasi*) deb ham ataladi.

IT. Bu oʻzlashma soʻz ingliz tilidagi *information technology* birikmasining qisqartma shakli hisoblanadi. Oʻzbek tilida *IT*, shuningdek, kengaytmasining kalkalangan varianti *axborot texnologiyalari* va bu birikmaning qisqartmasi *AT* koʻrinishlarida qoʻllaniladi.

QR kod bu biror narsaga bosilgan oq va qora kvadrat shakllardan iborat ikki oʻlchovli shiftrix kod boʻlib, u baʼzi turdagi mobil telefonlar orqali skaner qilinadi va bu kod bilan himoyalangan maʼlumotlar oʻqilishi mumkin. Inglizcha *Quick Response Code*, yaʼni *tezkor aniqlanadigan kod* birikmasining qisqartmasi hisoblanadi.

Bu qisqartmalarning grafikasi va fonetikasidagi turfa xillik oʻzlashma soʻzlarning maʼlum bir tilga kirishi uchun zarur boʻlgan talablarga mos kelmaydi. Masalan, ID karta soʻzida inglizcha *card* oʻzlashmasi tilimiz imlo va talaffuz meʼyorlariga mos keladi, ammo ID [ay-di] tarzida talaffuz qilinmoqda. Vohalangki,

¹¹ <https://linguistica.sns.it/RdL/15.2/07.Lehrer.pdf>

o‘zbek tilida i va d harflari uchun bunday talaffuz mos emas. Yoki bo‘lmasa IT va QR-code so‘zlari talaffuzida ham xuddi shunday masala bor. IT [ay ti], QR [ku: a:r] deb talaffuz qilinadi. Bu kabi holatlarga o‘zbek tili tabiatiga mos qat’iy belgilangan qoida belgilansa yoki imlo qoidalariga o‘zbek tilida ifodalash imkoni bo‘lmagani uchun o‘z tili imlosini saqlay oladigan so‘zlar haqida band qo‘shilsa maqbul bo‘ladi.